

METAFORIK IFODALARNI TARJIMA QILISHDA YUZ BERADIGAN MUAMMOLAR HAMDA ULARNING YECHIMLARI

Qobuljonova Robiyaxon

O‘zMU Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi

1-bosqich talabasi. robiyy79@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada metaforalarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda paydo bo‘ladigan muammolar hamda ularning yechimlari tahlil qilindi. Shu bilan birgalikda metaforalarning turlari, ularning tilshunoslikning yangi sohalaridan biri – lingvokulturologik jihatlar haqida ma’lumot berildi.

Kalit so‘zlar: Metafora, tarjimashunoslik, madaniyat, lingvokulturologiya, kognitiv nazariya, konseptual metafora, semantik ma’no, madaniy tafovutlar, konnotatsiya.

Abstract: This article examines the problems that arise in the process of translating metaphors from one language into another, as well as possible solutions to these issues. Additionally, it explores the types of metaphors and provides information on one of the emerging fields of linguistics - linguoculturology.

Key words: Metaphor, translation studies, culture, linguoculturology, cognitive theory, conceptual metaphor, semantic meaning, cultural differences, connotation.

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы, возникающие при переводе метафор с одного языка на другой, а также предлагаются возможные пути их решения. Кроме того, анализируются виды метафор и представлена информация об одном из новых направлений лингвистики — лингвокультурологии.

Ключевые слова: метафора, переводоведение, культура, лингвокультурология, когнитивная теория, концептуальная метафора, семантическое значение, культурные различия, коннотация.

Kirish. Bugungi kunda tarjima sohasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, metaforik ifodalarni bir tildan boshqasiga tarjima qilishdagi muammolar o‘rganilib, ularga yechim topilmoqda. Bu kabi tadqiqotlar ingliz olimlaridan Peter Newmark[1](A textbook of translation) , Mona Baker (In other words) , Ian Shuttleworth , Moira Cowie (Dictionary of translation studies) hamda o‘zbek tilshunoslaridan Sattorov M., Qodirova G., Ismoilova D., kabilarning ilmiy ishlarida ko‘zga tashlanadi.

Metaforaning tarjima jarayonidagi o‘rni muhimdir, chunki uni to‘g‘ri tarjima qilish matnning umumiy mazmunini saqlab qolish bilan birgalikda bir xalqning madaniyati, an‘analarini ham to‘g‘ri yetkazib berish demakdir.

Asosiy qism. Metaforalar nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki lingvokulturologiya sohasining asosiy terminlaridan biri hisoblanadi. Lingvokulturologiya sohasi shakllanishining ildizi V. H. Gumboldt tadqiqotlariga borib taqaladi. Bundan tashqari, bu sohaning rivojlanishida A. A. Potebnya, L. Vaysgerber, H. Glins, F. Boas, E. Sepir D. Xaymz kabi tilshunoslarning ilmiy nazariyalari va g‘oyalari muhim rol o‘ynaganligi ta’kidlanadi[2;20]. Shu kabi g‘oyalarga asoslanib tilshunoslik sohasida yangi soha - lingvomadaniyatshunoslik XX asrning 90-yillarida fan sifatida shakllandi.

Metaforik birliklar ma’lum xalqning dunyoqarashi, tafakkuri, urf-odatlaridan kelib chiqan holda shakllanadi. Bu to’g’risida ko‘plab olimlarning qarashlari mavjud bo’lsa-da, ularning barchasi ham bir-biriga bog‘liqdir. Misol uchun, Yu.S.Stepanov: ”Til-bu xalq madaniyatining ensiklopediyasidir, metafora esa ushbu madaniyatni kodlash usulidir”,- deya ta’rif bergan. Darhaqiqat, til madaniyatni o‘zida aks ettiradigan unsurlardan biridir, ya’ni insonlar bir tilni o‘rganayotganda bevosita ushbu til mansub bo‘lgan qadriyatlarini ham o‘rganadi. Metaforik ifodalar esa ushbu jarayonni osonlashtiruvchi birliklardir.

Metaforalarni to’g’ri tarjima qilishning ahamiyati katta. Ularni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- 1)har bir metafora muayyan madaniyatga xos bo‘ladi, shuning uchun tarjimada muqobil variantini topish qiyin;
- 2)metaforalar noto‘g‘ri tarjima qilinsa, metaforaning tasviriy kuchi yo‘qoladi[3; 10:104-107];
- 3)metaforalarni noto‘g‘ri tushunish, mazmuniy buzilishga olib keladi[1;8];
- 4)metafora orqali berilgan madaniy tushuncha boshqa tilda mavjud bo‘lmasligi mumkin[5; 3:100-110].

Misol uchun, ingliz tilidagi bir nechta metaforalarni tahlil qilsak:

“He kicked the bucket” gapida ishlatilgan metaforani “chelakni tepdi” kabi, “her voice was music for his ears” –“ uning ovozi quloqlari uchun musiqa edi” tarzida to’g’ridan to’g’ri tarjima qilinsa ma’no buzilishi ro’y berishi mumkin.

Tarjima jarayonida shu singari muammolarga yechim topish tarjimondan ulkan mahorat talab etadi. Bugungi kunda tarjimashunoslik sohasida ko‘plab izlanishlar olib borgan Peter Nyumark metaforalarni tarjimasida alohida to‘xtalib, o‘zining klassifikatsiyasini o‘ylab topgan. Uning fikricha, har qanday so‘z metafora bo‘lishi mumkin, faqatgina uning ma’nosini til, vaziyat va madaniy kontekstga qarab moslashtirish mumkin. Peter Newmark metaforalarni 6 turga taqsimlaydi hamda metaforalarni ushbu turlarini bilmay turib uni boshqa tilga tarjima qilish mushkul ekanini ta’kidlaydi[1;104]:

1. Dead metaphor (O‘lik metaforalar). Ushbu metaforalar juda ko‘p ishlatilib, asl obrazli ma’nosi unutilgan metaforalardir: “falling in love” birikmasidagi “fall” yiqilish o‘zining asl ma’nosini yo‘qotgan, odatiy atamaga aylangan.

2. Cliché metaphor- ushbu meyaforalar ham iste'molda ko'p qo'llanilgan, biroq obrazli kuchga ega hisoblanadi: “a broken heart”.

3. Stock or standard metaphor-odatiy, ya'ni muayyan madaniyatda keng tarqalgan va aniq ma'noga ega metafora. Bu metaforalarni tarjima qilishda madaniyatga xoslik muhim rol o'ynaydi: “time is money”.

4. Adapted metaphor- standart metaforaning o'zgartirilgan shaklidir.

5. Recent metaphor- so'nggi davrlarda yaratilgan va hanuz faol ishlatilayotgan metafora: “that news went viral”.

6. Original metaphor- ushu metaforalar muallif tomonidan yaratilgan, o'ziga xos obrazga ega bo'ladi. Odatda, ularni tarjima qilishda eng katta qiyinchilikka duch kelinadi: “We wise who with a thought besmirch Blood over all our soul”(Wilfred Owen).

Peter Newmarkning metaforalarni yuqoridagi kabi toifalarga ajratib, ularni boshqa tilga tarjima qilishda o'zining usullarini yaratdi:

Birinchi usul- metaforani to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish. Agar metaforalarning tarjima ma'nosida hech qanday g'alizlik paydo bo'lmasa, ularni shundayligicha tarjima qilish mumkin: “Life is a stage”- “hayot teatr sahnasidir”.

Ikkinchi usul- madaniy o'xshashlik asosida muqobiliga almashtirish: “Time is a thief” metaforasini o'zbek tiliga “vaqt-oqar daryo” tarzida ekvivalentiga almashtirish mumkin.

Uchinchi usul- metaforani o'xshatishga aylantirish. Bu esa kabi, singari; -dek, -day so'z va qo'shimchalari yordamida amalga oshiriladi: “the city is a jungle”-“shahar xuddi o'rmondek (jim-jit)” deyish mumkin.

To'rtinchi usul- metaforani asl ma'nosiga ko'ra tarjima qilish: “He is a night owl” metaforasini o'zbek tiliga ma'nosini berish orqali tarjima qilsa bo'ladi: “U kechasi uxlashni yoqtirmaydi (ya'ni boyo'g'li kabi tuni bo'yi uxlamaydi)”.

Beshinchi usul- metaforalarni olib tashlash. Ba'zida metaforalarni tarjima qilish imkonsiz bo'ladi, agar tarjima qilinsa, kontekstni buzish holatlari uchrashi mumkin. Shunday hollarda metaforalardan voz kechiladi va oddiyroq ibora yoki so'z ishlatiladi: “The market is a bear” metaforasini “Bozor ayiqdir” emas, “Bozor savdosi pasaymoqda” deyish kerak.

Tarjimon ushbu usullar orqali metaforalarni o'zga tilga qiyinchiliklarsiz tarjima qila oladi, faqatgina tarjima qilish jarayonida metaforalarning asl ma'nosini, qanday qadriyat va an'analarni aks ettirayotganini chuqur tahlil qilishi hamda ularni to'g'ri guruhga ajrata olishi zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, metaforalar lingvokulturologik termin sifatida o'zida xalqning tafakkuri, mentaliteti, dunyoqarashini aks ettiradi. Ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Negaki ularni doim ham to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish mumkin bo'lmaydi. Metaforalar orqali muayyan millat

taqdiri, tarixi haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkinligi sababli, ularni ko'plab izlanishlar orqali tarjima qilish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Peter Newmark , A Textbook of translation, Prentice Hall, New York- 1988 –p.-8;-104. .
2. Qo'ziyev U. Lingvomadaniyatshunoslik-Uslubiy qo'llanma. NamDu nashri: Namangan – 2021: -122b.
3. Odilov A.A. Lingvokulturologiya fanining yuzaga kelish tarixi – Scientific Progress – Uzbekistan-2021, -100b.
4. Mona Baker – In other words: A Coursebook on Translation, Routledge, London , 1992:-100p.
5. Shuttleworth and Cowie- Dictionary of translation studies, Routledge, Manchester, 1997.
6. Susan Bassnet , Translation Studies , Routledge ,London ,1980.
7. G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Tafakkur bo'stoni Toshkent, 2012.